



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19695257>

Ovozsiz muloqotning yashirin qatlamlari: bo'lajak o'qituvchi nutqida ko'rinmas ta'sir mexanizmlarining pedagogik talqini

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna –

Farg'ona davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: nodiraxonabduvaliyeva@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9824-4622>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik muloqotning ko'rinmas qatlamlari bo'lmish noverbal va paralingvistik vositalarning bo'lajak o'qituvchi nutqidagi o'rni, funksional xususiyatlari hamda ularning pedagogik ta'sir mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda noverbal vositalarning semantik mustaqilligi, ularning nutq mazmunini shakllantirishdagi roli hamda pedagogik jarayonda yuzaga keladigan kommunikativ ta'sirning ichki mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, o'qituvchining ichki psixik holati va tashqi ifodasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda uning muloqot samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda talqin qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** noverbal qatlam, pedagogik nutq, yashirin kommunikatsiya, mimika, jest, okulesika, fonatsiya, proksemika, refleksiya, semantik tizim.*

Скрытые уровни невербальной коммуникации: педагогическая интерпретация невидимых механизмов влияния в речи будущего учителя

***Аннотация.** В данной статье глубоко анализируются роль, функциональные особенности и механизмы педагогического воздействия невербальных и паралингвистических средств, представляющих собой скрытые слои педагогического общения, в речи будущего учителя. В исследовании раскрываются семантическая самостоятельность невербальных средств, их роль в формировании содержания речи, а также внутренние механизмы коммуникативного воздействия, возникающие в педагогическом процессе. Также на*

научной основе интерпретируется взаимосвязь между внутренним психическим состоянием учителя и его внешним выражением, а также её влияние на эффективность общения.

Ключевые слова: невербальный слой, педагогическая речь, скрытая коммуникация, мимика, жест, окулесика, фонация, проксемика, рефлексия, семантическая система.

Hidden layers of nonverbal communication: a pedagogical interpretation of invisible influence mechanisms in the speech of future teachers

Annotation. *This article deeply analyzes the role, functional features, and pedagogical impact mechanisms of nonverbal and paralinguistic means, which constitute the invisible layers of pedagogical communication, in the speech of a future teacher. The study reveals the semantic independence of nonverbal means, their role in shaping the content of speech, as well as the internal mechanisms of communicative influence that arise in the pedagogical process. It also provides a scientific interpretation of the interrelation between the teacher's inner psychological state and external expression, as well as its effect on the effectiveness of communication.*

Keywords: *nonverbal layer, pedagogical speech, hidden communication, facial expressions, gesture, oculusics, phonation, proxemics, reflection, semantic system.*

KIRISH

Jahonda kommunikatsiya fenomenining ko'p qatlamli mohiyatini anglashga bo'lgan ilmiy qiziqish ortib borayotgan bir sharoitda nutqning faqat lingvistik vositalar orqali emas, balki ko'rinmas, sezilmas va ko'pincha ongsiz tarzda amalga oshuvchi noverbal komponentlar orqali kechishi tobora aniqroq namoyon bo'lmoqda. Inson nutqi o'zining tashqi shaklida so'zlar tizimi sifatida ko'rinsa-da, uning ichki strukturasi turli darajadagi mimik, kinetik va fonatsion signallar uzviy birlikda faoliyat yuritadi. Shu jihatdan nutq hodisasi murakkab multimodal tizim sifatida talqin qilinadi.

Pedagogik faoliyatda esa ushbu tizimning ahamiyati yanada ortadi. Chunki o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki kommunikativ muhit yaratuvchi, psixologik ta'sir ko'rsatuvchi subyekt sifatida ham namoyon bo'ladi. O'qituvchining nutqi orqali nafaqat bilim, balki munosabat, emotsiya va ijtimoiy signallar ham uzatiladi. Bu jarayonda noverbal vositalar yetakchi rol o'ynaydi. Muloqotning noverbal qatlamini e'tibordan chetda qoldirish pedagogik jarayonning samaradorligini pasaytiradi. Shu boisdan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida noverbal kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish alohida ilmiy muammo sifatida qaralishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqot faoliyat nazariyasi asosida olib borildi. Ushbu nazariyaga ko'ra, har qanday inson faoliyati, jumladan, kommunikativ faoliyat ham ma'lum strukturaga ega bo'lib, unda harakatni amalga oshirish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'nikma aynan ushbu usullar tizimi sifatida shakllanadi va rivojlanadi. "Умение представляет собой способ выполнения действия..." degan ilmiy qarash noverbal vositalarni ham faoliyatning tarkibiy elementi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqotda psixologik

va lingvistik yondashuvlar integratsiyasi asosida kuzatuv, tahlil va interpretatsiya metodlaridan foydalanildi.

Noverbal kommunikatsiya uzoq vaqt davomida nutqqa nisbatan ikkilamchi hodisa sifatida qaralib kelgan. Biroq zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, noverbal vositalar mustaqil semantik tizim sifatida faoliyat yuritadi. Ular nafaqat nutqni to'ldiradi, balki ayrim hollarda uning o'rnini to'liq egallaydi. Masalan, o'qituvchining nigohi yoki yuz ifodasi orqali uzatilgan signal ko'pincha so'z orqali ifodalangan mazmundan kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Bu holat noverbal vositalarning semantik mustaqilligini ko'rsatadi. Noverbal signallar ko'pincha ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi va inson tomonidan intuitiv ravishda qabul qilinadi. Shu sababli ular muloqotning tezkor va samarali amalga oshishini ta'minlaydi.

Pedagogik muloqotda noverbal vositalar bir vaqtning o'zida bir necha funksiyani bajaradi. Ular nutq mazmunini aniqlashtiradi, emotsional fon yaratadi, muloqotni boshqaradi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar o'qituvchining mimikasi va jestlariga sezgir bo'ladilar. O'qituvchining ochiq va ijobiy tana harakati o'quvchilarda ishonch hissini uyg'otadi, aksincha, yopiq va passiv pozitsiya salbiy ta'sir ko'rsatadi. Noverbal vositalarning yana bir muhim xususiyati ularning ko'p funktsionalligi hisoblanadi. Birgina jest bir vaqtning o'zida ham emotsional, ham informatsion, ham tartibga soluvchi vazifani bajarishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogning noverbal xatti-harakatlari ko'plab xabarlarini tinglovchiga yetkazishi mumkin va sinfda ijobiy yoki salbiy muhit yaratishda xizmat qiladi. O'qituvchining tashqi ko'rinishi, imo-ishorasi, yuz va ko'z orqali o'quvchilar bilan aloqasi, ovozi va ovozidagi sifatiy o'zgarishlar, o'quvchilar va o'qituvchining nutqiy muloqotida muhim rol o'ynaydi va bu o'quvchilarning o'rganishi va tushunishiga katta ta'sir ko'rsatadi. V.Richmondning ta'kidlashicha, o'qituvchi paralingvistik vositalardan samarali foydalanganda o'quvchilar ko'proq tinglashga, ko'proq o'rganishga va maktabga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga intiladi hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy sinf muloqoti o'quvchilarning samarali hamda kognitiv o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Auditoriyada o'qituvchi tomonidan noverbal vositalarning eng ko'p qo'llaniladigan shakllaridan biri imo-ishoradir. Masalan, o'quvchilarning chiqishlaridan so'ng rag'bat sifatida bosh barmog'ini yuqoriga ko'tarish (yaxshi manosida) yoki qo'llarni bir-biriga urish (qarsak) kabi qo'l imo-ishoralari o'quvchilarning o'quv va ijodiy o'sish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Biroq pedagogning juda qattiqqo'lligi va kamdan-kam holatda o'quvchilarga tabassum qilishi sinfda keskin va salbiy muhitni shakllantiradi. Bu o'quvchilarni asabiylashtirishga va ularning o'quv jarayoniga bo'lgan e'tiborini susayishiga olib keladi. L.Gray shu sohada olib borgan tadqiqotlarida o'qituvchi tabassum bilan do'stona munosabatda bo'lsa, talabalar o'rganishdan ko'proq zavqlanishlarini ta'kidlaydi. Demak, o'qituvchi kasbi bilan bog'liq paralingvistik vositalar nafaqat pedagogning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi va darslarni samarali tashkil qilishida, balki o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, ma'lumotlarni yaxshi tushunishlariga, o'zlashtirgan informatsiyalarini aniq tasavvur eta olishi va voqelikni oson anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik muloqotda noverbal vositalarning samaradorligi o'qituvchining ichki psixik holati bilan bevosita bog'liq. Insonning ichki kechinmalari uning tashqi ifodasida aks etadi. "Har qanday psixik funksiya avvalo ijtimoiy darajada namoyon bo'ladi" degan qarash aynan shu jarayonni tushuntiradi. Agar o'qituvchi ichki jihatdan ishonchli va faol bo'lsa, bu uning mimikasida, ovoz ohangida va tana harakatida namoyon bo'ladi. Aksincha, ichki noaniqlik tashqi ifodada ham aks etib, muloqot samaradorligini pasaytiradi. Noverbal kommunikatsiya bir necha komponentlardan tashkil topadi: Mimik vositalar yuz ifodasi

orqali uzatiladigan signallarni o'z ichiga oladi. Ko'z va qosh harakatlari muloqotning eng tezkor vositalaridan biridir.

Okulesika – ko'z orqali amalga oshuvchi muloqot bo'lib, u muloqotning boshlanishi va davomiyligini belgilaydi. Ko'z bilan aloqa o'rnatish muloqotning muhim elementi hisoblanadi. Okulesika insonning ko'z harakatlari, nigohi, qarash yo'nalishi, qarash davomiyligi va ko'z orqali ifodalanadigan ichki holatlari bilan bog'liq noverbal muloqot turidir. U kommunikatsiya jarayonida ayniqsa muhim o'rin tutadi, chunki ko'z orqali uzatiladigan axborot so'z bilan ifodalanayotgan mazmuni to'ldiradi, kuchaytiradi yoki ayrim hollarda hatto inkor etadi. Ko'z bilan aloqa muloqotning boshlanish nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni suhbatdoshga qarash, unga nigoh tashlash, uning e'tiborini jalb etish muloqotga kirishishning dastlabki belgilaridan biri hisoblanadi. Agar kommunikantlar o'zaro ko'z bilan aloqa o'rnatish olsalar, ular o'rtasida psixologik bog'lanish, e'tibor va o'zaro qiziqish shakllana boshlaydi. Shu jihatdan olganda, okulesika muloqotning nafaqat boshlanishini, balki uning davomiyligini, ritmini va samimiyligini ham belgilab beradi.

Ko'z bilan aloqa o'qituvchi faoliyatida ayniqsa katta ahamiyatga ega. Chunki pedagogik muloqot shunchaki axborot uzatish emas, balki ta'sir ko'rsatish, boshqarish, yo'naltirish va o'quvchini ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash jarayonidir. O'qituvchi o'quvchilarga qarab gapirganda, ularda “menga murojaat qilinmoqda”, “men nazoratdaman”, “men tinglanayotgan va kuzatilayotgan subyektman” degan ichki sezgi paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning diqqatini bir joyga jamlashga, darsga faolroq jalb qilinishiga xizmat qiladi. Aksincha, o'qituvchining nigohi beqaror, sovuq yoki loqayd bo'lsa, o'quvchilarda befarqlik, ishonchsizlik yoki ruhiy uzoqlashish kuzatilishi mumkin. Demak, ko'z qarashi faqat ko'rish organining fiziologik funksiyasi emas, balki kuchli psixologik va kommunikativ vositadir.

Okulesikaning yana bir muhim jihati shundaki, u emotsional holatni ham aniq ifodalaydi. Masalan, samimiy qarash ishonch va ochiqlikni bildirsa, nigohni olib qochish tortinchoqlik, noqulaylik yoki ishonchsizlikni anglatishi mumkin. Diqqat bilan tik qarash qiziqish va e'tiborni ifodalasa, keskin yoki sovuq qarash salbiy munosabat, tanbeh yoki bosim mazmunini yuzaga chiqaradi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z nigohi orqali ma'qullash, rag'batlantirish, ogohlantirish, nazorat qilish kabi ko'plab ma'nolarni ortiqcha so'zsiz ham ifodalashi mumkin. Shu bois okulesika pedagogik ta'sirchanlikning nozik, ammo kuchli mexanizmlaridan biri sanaladi.

Proksemika esa muloqot jarayonida shaxslar o'rtasidagi fazoviy masofa va joylashuvning kommunikativ ma'no kasb etishini o'rganuvchi noverbal vositalar tizimidir. Insonlar bir-biriga qanchalik yaqin yoki uzoq turishi, ularning o'zaro munosabat darajasi, psixologik holati, ijtimoiy mavqei hamda muloqotning xarakteri haqida muhim axborot beradi. Fazoviy masofa oddiy jismoniy uzoqlik emas, balki ruhiy yaqinlik yoki masofadorlikning tashqi ko'rinishidir. Shu sababli proksemika muloqotning yashirin, lekin juda sezgir qatlamini tashkil etadi. Ta'lim muhitida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi masofa alohida pedagogik ma'no kasb etadi. Agar o'qituvchi o'quvchiga haddan tashqari uzoq turib murojaat qilsa, bu holat rasmiylik, hissiy sovuqlik yoki begonalik taassurotini berishi mumkin. Aksincha, o'rinsiz darajada yaqinlashish o'quvchida noqulaylik, taranglik yoki shaxsiy hudud buzilayotgani haqidagi hissiyotni uyg'otadi. Shuning uchun pedagog o'z fazoviy holatini vaziyatga, o'quvchining yoshiga, psixologik holatiga va kommunikativ maqsadga mos ravishda boshqarishi zarur. Masalan, umumiy izoh berishda o'qituvchining sinf oldida turishi tabiiy bo'lsa, individual tushuntirish paytida o'quvchiga bir oz yaqinlashish samarali bo'lishi mumkin. Bu yaqinlik nazorat emas, ko'mak va hamkorlik belgisi sifatida qabul qilinsa, pedagogik muloqot samaradorligi ortadi. Proksemika pedagogik jarayonda intizomni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha o'qituvchi

sinf bo'ylab harakatlanib, ayrim o'quvchilarga yaqinlashish orqali ularning diqqatini faollashtiradi, tartibni saqlaydi, darsga jalb etadi. Bu yerda jismoniy yaqinlashuv bevosita psixologik signal vazifasini bajaradi. Ya'ni o'quvchi o'qituvchining o'ziga yaqin kelishini nazorat, qiziqish yoki alohida murojaat sifatida qabul qiladi. Shunday qilib, proksemika o'qituvchining nutqi bilan birga sinfni boshqarish vositasi ham bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sinfdagi partalarning joylashuvi, o'qituvchining turish nuqtasi, guruhli yoki yakka ishlash jarayonidagi masofalar ham kommunikativ iqlimni belgilaydi. Demak, proksemika ta'lim jarayonida pedagogik muloqotning tashkiliy va psixologik tomonlarini uyg'unlashtiruvchi muhim omildir.

Fonatsion vositalar esa nutqning tovush bilan bog'liq ifoda imkoniyatlarini qamrab oladi. Ular til birligi sifatida so'zning leksik ma'nosidan tashqari, nutqning qanday ohangda, qanday kuch bilan, qanday tezlikda, qanday tembr va ritmda aytilishini bildiradi. Shuning uchun fonatsion vositalar verbal mazmunning emotsional-ekspressiv qobig'ini hosil qiladi. Bir xil gap turli ohangda aytilganda, uning mazmuniy ta'siri ham butunlay o'zgaradi. Masalan, "Yaxshi" so'zi samimiy, istehzoli, e'tirofli yoki befarq ohangda aytilishi mumkin. Bu farqlar esa aynan fonatsion vositalar yordamida yuzaga chiqadi.

Ovoz ohangi nutqning eng ta'sirchan unsurlaridan biridir. U fikrning maqsadini, gapiruvchining munosabatini, hissiy kechinmasini ochib beradi. Muloyim ohang samimiylik va hurmatni bildirsa, baland va keskin ohang buyruq, tanbeh yoki norozilik ma'nosini keltirib chiqaradi. Tembr esa ovozning individual rangidir. Har bir insonning ovozi o'ziga xos tembrga ega bo'lib, bu uning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holati va kommunikativ uslubini namoyon etadi. Ritm esa nutqning tez-sekinligi, pauzalar, urg'ularning tartibli almashinuvi bilan bog'liq bo'lib, tinglovchining qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir etadi. Juda tez nutq idrokni qiyinlashtiradi, haddan tashqari sekin nutq esa zerikish yoki diqqatning susayishiga olib kelishi mumkin.

Pedagogik faoliyatda fonatsion vositalarning roli nihoyatda kattadir. O'qituvchining ovozi darsning emotsional fonini yaratadi. Uning ohangi rag'batlantiruvchi bo'lsa, o'quvchi o'zini erkinroq his qiladi; tushuntirish ohangi ravon va ifodali bo'lsa, o'quv materiallari yaxshiroq o'zlashtiriladi; ovoz bir maromda, hissiz bo'lsa, dars monoton tus olib, o'quvchilarning diqqatini pasaytiradi. Shu bois pedagog nutqida intonatsion boylik, o'rinli pauza, mantiqiy urg'u va tovush balandligining me'yoriy boshqarilishi muhim metodik talab hisoblanadi. O'qituvchi faqat nima deyayotganiga emas, balki qanday deyayotganiga ham jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Fonatsion vositalar ta'lim jarayonida boshqaruvchanlik funksiyasini ham bajaradi. O'qituvchi ovozining pasayishi yoki balandlashuvi orqali sinf e'tiborini bir nuqtaga to'plashi, muhim o'rinni ajratib ko'rsatishi, o'quvchida qiziqish uyg'otishi mumkin. Mantiqiy urg'u yordamida asosiy fikr ajratiladi, pauza yordamida esa tinglovchiga fikrni anglab olish imkoniyati yaratiladi. Demak, fonatsion vositalar nutqni shunchaki tovushlar yig'indisi emas, balki ta'sirchan, mazmunli va boshqaruvchi kommunikativ hodisaga aylantiradi.

Okulesika, proksemika va fonatsion vositalar pedagogik muloqotning o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ko'z qarashi muloqotning ruhiy ko'prigini quradi, fazoviy masofa munosabatning ichki darajasini namoyon etadi, ovozning fonatsion xususiyatlari esa nutqning hissiy-ta'sirchan qiyofasini shakllantiradi. Shu sababli o'qituvchi kommunikativ kompetentligini shakllantirishda faqat til vositalarini emas, balki ana shu noverbal omillarni ham puxta egallashi zarur. Chunki samarali pedagogik muloqot nafaqat so'zning ma'nosi, balki nigohning ta'siri, masofaning mazmuni va ovozning ifodaviy qudrati orqali ham barpo etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda noverbal sezgirlikni shakllantirish pedagogik tayyorgarlikning muhim komponenti hisoblanadi. Bu jarayon refleksiya orqali amalga oshadi. Refleksiya o'qituvchiga o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Pedagogik faoliyat samaradorligi o'qituvchining analitik, prognostik va

refleksiv ko'nikmalari bilan belgilanadi. Ushbu ko'nikmalar noverbal vositalarni ongli boshqarishga xizmat qiladi. Noverbal vositalardan foydalanish jarayoni ikki bosqichda amalga oshadi: kodlash va dekodlash. O'qituvchi ma'lum signalni uzatadi, o'quvchi esa uni qabul qilib talqin qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi tomonlarning kommunikativ kompetensiyasiga bog'liq. Umumpedagogik faoliyatda mobilizatsion, informatsion va orientatsion ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi. Ushbu ko'nikmalar muloqotni samarali tashkil etishga va pedagogni o'quvchilar bilan maqsadli muloqot orqali tushunishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari pedagogik muloqot samaradorligi faqat verbal vositalarga emas, balki uning noverbal qatlamiga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Noverbal vositalar nutq mazmunini to'ldiradi, uni chuqurlashtiradi va tinglovchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ko'z qarashi, fazoviy masofa va ovoznining fonatsion xususiyatlari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu vositalar pedagogik jarayonda diqqatni boshqarish, qiziqishni oshirish va o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, noverbal signallar o'qituvchining shaxsiy kommunikativ madaniyatini aks ettiradi va uning kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, noverbal vositalardan ongli va maqsadga muvofiq foydalanish pedagogik muloqotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida noverbal kommunikatsiya ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi. Umuman olganda, noverbal vositalarni chuqur egallagan pedagog ta'lim jarayonida samarali, ta'sirchan va yuqori darajadagi kommunikativ muhitni yaratishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gray L. Educational research: Pearson Education. – New Jersey: Publisher, 2006. – P. 18.
2. Richmond V. Teacher nonverbal immediacy: Use and Outcomes. – Boston: Copyright, 2002. – P. 178.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – С. 98.
4. Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика. – М.: НЛЮ, 2002. – С. 45.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982. – С. 145.
6. Садохин А.П. Межкультурная коммуникация. – М.: Гардарики, 2004. – С. 112.
7. Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Академия, 2002. – С. 112.
8. Щербаков А.И. Педагогическая деятельность учителя.–М.: Педагогика, 1981. – С. 47.